

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

N.ATAYEVA, F.RASULOVA, M. SALAYEVA, S.HASANOV

**UMUMIY
PEDAGOGIKA**

(Pedagogika tarixi)

O‘quv qo‘llanma

I kitob

TOSHKENT–2012

UDK: 37 (075)

BBK 74.00

A87

A87 N.S.Atayeva, F.Rasulova, M. Salayeva, S.Hasanov.
Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. I kitob.
– T.: «Fan va texnologiya», 2012, 756 bet.

ISBN 978–9943–10–604–8

Ushbu o'quv qo'llanmada pedagogika tarixi fanining umumiy asoslari, predmeti, maqsad va vazifalari, ilmiy tadqiqot metodlari va manbalari, bos hqa fanlar bilan aloqadorligi, sh uningdek, qadimgi Yunoniston, Rim, Xitoy, Hindiston, Turon, Movarounnahr, Turkiston va mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti tarixi hamda jahonda rivojlangan mamlakatlar ta'lim-tarbiya tizimi bilan bog'liq pedagogik bilim asoslari batafsil yoritilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma iqtisodiy Oliy o'quv yurtlarining barcha bakalavriat va magistrlik yo'nalishlari talabalari, o'qituvchilari hamda ilmiy tadqiqotchilari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma Toshkent Moliya instituti ilmiy-uslubiy Kengashi qaroriga asosan nashr etildi. (2010-yil 15-may, 4-sonli bayonnoma).

Ilmiy muharrir: J.G'.YO'LDOSHEV – Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasi akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor;

Taqrizchilar: H.OMONOV – pedagogika fanlari doktori, professor;

SH.MARDONOV – pedagogika fanlari doktori, professor;

M.HOSHIMOVA – TDIU «Pedagogika va psixologiya» kafedrası mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, professor.

ISBN 978–9943–10–604–8

©«Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012.

KIRISH

Ma'lumki, pedagogika tarixi fani jamiyat a'zolarini o'sha jamiyatning yetakchi omillariga mos qilib shakllantirish bilan shug'ullanadigan ilmiy-nazariy va amaliy faoliyatlar tizimidir. Zero, pedagogika tarixi, ta'lim-tarbiya g'oyalarini rivojlantirish bosqichlarini bosib o'tgan bo'lsa, XXI asr bo'sag'asida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy va iqtisodiy pedagogika yo'nalishlari rivojlandi. Demak, pedagogika tarixi fani o'z rivojlanish bosqichida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, hamma zamonaviy bosqichlarda har bir jamiyat o'ziga yarasha pedagogik bilimlarga ega bo'lgan, pedagogik fikrlar taraqqiyoti darajasi-jamiyatning, ijtimoiy tuzumning rivojlanganligini bildiruvchi ko'rsatkichdir. Shu ma'noda, har bir bosqichning, ya'ni davrning qandayligi o'sha zamondagi pedagogik fikrlarning xarakteriga ham bog'liqdir. Negaki, davr unda yashayotgan har bir shaxsning tabiati, xarakteri va psixologik xatti-harakatlariga monand bo'ladi. Shaxsning ijtimoiy xarakteri va fikri, odob-axloqi, bilim darajasi va muomala madaniyati esa, asosan, pedagogika tarixini o'qitish orqali shakllantiriladi.

Ma'lumki, sobiq sovet ittifoqi davrida avtoritar, mafkuraviy pedagogika tarbiyalanuvchini pedagogik jarayonning ijrosi, ya'ni subyekti deb qaragan edi. Zero, o'qituvchi-tarbiyachi tarbiyalashi, tarbiyalanuvchi esa tarbiyalanishi kerak deb tushuntirar edi.

Shuningdek, garchi marksizm-leninizm ta'limoti jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va mavjud tuzum, shaxs tafakkurining yo'nalishlarini belgilaydi deb o'rgatib kelgan bo'lsa-da, aslida ijtimoiy munosabatlarning tabiatini muayyan jamiyatning ijtimoiy tafakkur tarzi, ma'naviy sifatlari majmuini belgilaydi. Shunday ekan, shaxsning ijtimoiy tafakkurida, ma'naviyati va bilim darajasida o'zgarish bo'lmay turib, jamiyat taraqqiyoti rivojida va ta'lim-tarbiya tizimida yuksalish bo'lishi aslo mumkin emas.

Pedagogika tarixi fani yoshlarning ijtimoiy tafakkurida sodir bo'lgan yangilanishlarni, ma'naviyatida ro'y bergan o'zgarishlarni ko'pchilikning xulq-atvoriga aylantiradigan, ya'ni jamiyatning aksariyat faol a'zolari yoshlarda **ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal** kabi va yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirishga da'vat etadigan ijtimoiy

faoliyatdir. Yoshlarimiz ijtimoiy tafakkuridagi yangilanishlar harakat faktoriga aylanib mustaqillik qo'lga kiritildi, natijada mustaqil O'zbekiston Respublikasi vujudga keldi.

Mustaqil yurtda, sog'lom aqlga muvofiq yangi ijtimoiy tuzumda yashaydigan barkamol avlodning ma'naviyatini shakllantirishday, ta'lim-tarbiyasini yuksak darajaga ko'tarishday zalvarli yumush borki, u bilan pedagogika tarixi fani shug'ullanadi. Shuning uchun ham pedagogika tarixi fani va amaliyotining bugunga kelib, maqsadi tamomila o'zgardi. U mafkura iskanjasidan xalos bo'lib, o'ziga xos sof ilmiy qonuniyatlar asosida rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lganligi tufayli bilim berish, mutaxassis tayyorlashni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan pedagogika tarixidan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan jarayonga aylanib borayotganligi ko'rinib turibdi. Shuning uchun ham pedagogika tarixi fani va ijtimoiy-tarixiy asosga ega bo'lishi, ta'lim va tarbiyaning pirovard natijasini sog'lom pedagogik falsafa belgilab berishi zarurligini anglash vaqti yetdi. Pedagogik falsafa o'zgarganligi milliy tarbiyashunosligimizning sog'lom yo'nalishlardan borishini ta'minlaydigan omillardan hisoblanadi. *Milliy pedagogika tarixi islom falsafasi-kalom xulosalariga, shaxs ma'naviyatini takomillashtirish bo'yicha eng ta'sirchan va eskirmas qarashlar bergan tasavvuf ta'limotiga tayanib rivojlanmoqda. Milliy pedagogika tarixi uchun o'quvchi-talaba shaxsi, birinchi navbatda, komil inson sifatida shakllantirilishi muhimdir. Uning barkamollik darajasi nasl-nasabi, boyligi bilan emas, balki unga beriladigan bilimlar, aqliy imkoniyatlari-yu, **ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amallari** bilan belgilanadi. Bu pedagogika tarixi uchun talaba shaxsida hosil qilingan bilim emas, balki uning komil insonlik darajasi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.*

Shaxs ma'naviy fazilatlarining qaysidir bir miqdori tug'ma bo'lsa-da, asosan, ta'lim va tarbiya vositasida shakllantiriladi. Shunday ekan, pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyotida, xalqimizning, shu jumladan, yoshlarimizning mentaliteti va ma'naviy qiyofasini, shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Yangicha pedagogik-tarixiy va falsafiy tafakkurga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlardan yana mustaqillik davrida – uning byurokratik qoliplardan qutulib, demokratik va insonparvarlik mazmun kasb etib borayotganligidir. Sharqning buyuk mutafakkiri Robbindranat Tagor o'zining 30-yillarda yozgan **«Rossiya haqida maktublar»** asarida Sho'rolar tuzumining **«... jiddiy xatolari bor, bir kun kelib, u bir baxtsizlikka sabab bo'ladi. Bu shunday**

xatoki, maorif ishlari bir andozada yuritilmoqda, biroq andozaga solingan inson mohiyati barqaror bo'lmaydi. Insonning aqli biqiq muhit ichra bandi etilsa, borib-borib zavor topadi yoki odam bolasi muruvvatli qo'g'irchog'dek bo'lib qoladi»¹, deb yozgan edi. Oradan vaqt ko'p o'tmay, buyuk hind mutafakkirining sotsializm barpo bo'lishi ham, barbod bo'lishi ham, ayni shu narsaga, ya'ni shaxsning ta'lim-tarbiyasi bir andozaga solinib, qo'g'irchoqqa aylantirilishiga borib taqalishi to'g'risidagi yuqoridagi fikrlari o'z tasdig'ini topdi.

Eng avvalo, milliy pedagogika tarixi fani rivojlanishiga yana bir ishonchli dalil shundaki, u avtoritarizmdan, ya'ni bir xillikdan, yuqoridan ko'rsatma berilishidan qutulganligidir. Hozirgi kunda respublika oliy o'quv yurtlari o'ndan ziyod o'quv rejasi asosida ish olib borayotganligi, gimnaziya, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari yo'nalishidagi ta'lim muassasalarida, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning keng joriy qilinishi: integratsion ta'limning yo'lga qo'yilganligi va h.k., pedagogika tarixi fani, nazariyasi va amaliyotida demokratik jarayonlarning amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Huquqiy egalik nuqtayi nazaridan ham xilma-xil nodavlat o'quv-tarbiya muassasalari tashkil etilib, ularda mutlaqo zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanilayotganligi milliy pedagogika tarixi sog'lomlashganligi nishonasidir. Yangi pedagogik tafakkurning o'ziga xos tomoni—uning to'la-to'kis milliy asoslarga tayana boshlaganidir.

Milliy pedagogikaning sifatlaridan yana biri uning insonparvarlashganligidir. Yaqin o'tmishda ta'lim-tarbiya tizimlari uchun ham, pedagogika uchun ham talabning o'zi emas, balki u egallaydigan bilim muhim sanalardi.

Ta'lim-tarbiyaning insonparvarlashuvi, barcha pedagogik qarashlar markazida tarbiyalanuvchining shaxs-sifatida shakllanishini, talaba va o'qituvchi, tarbiyachi-tarbiyalanuvchi munosabatlarining tubdan o'zgarishini, jamiyatning insonlar hayoti va sog'lig'i, ularning huquqlari, milliy va jahon ta'lim tizimi tajribalari asosida shaxs taraqqiyoti, umuminsoniy qadriyatlar, ta'lim olish va o'quv muassasasining turini erkin ravishda tanlash, alohida o'z imkoniyatlari va qobiliyatiga asosan xo'jalik yuritish va tadbirkorlik bilan shug'ullanish mustaqilligi va tashabbusiga, malaka va ko'nikmasiga ega bo'lishni taqozo etadi.

¹ Qarang: M.Mullajonov. Yangicha tafakkur va milliy pedagogikaning shakllanishi. // Iqtisodiyot va ta'lim, 2000-yil 1-son, 41-bet.